

**SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANIDA
TARQALGAN *SALVIA* L. TURLARINING BIOEKOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**Qarabayeva Dilfuza Jo'rayevna - Termiz davlat universiteti Botanika
kafedrasi katta o'qituvchisi,**

Abdinazarov Akbar Farxod o'g'li - Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida tarqalgan *Salvia* L. turkumi vakillarining ekologik guruhlanishi, tarqalish geografiyasi va bioekologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijasida tuman hududida 9 ta *Salvia* turi qayd etilib, ularning tarqalish areali, ekologik talablari va fitotsenotik bog'liqliklari aniqlangan.

Kalit so'zlar: *Salvia* L., tarqalish geografiyasi, ekologik guruhlanish, vertikal mintaqalashtirish, dorivor o'simliklar, Sherobod tumani, fitotsenoz.

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению экологической группировки, географии распространения и биоэкологических характеристик представителей рода *Salvia* L., произрастающих на территории Шерабадского района Сурхандарьинской области. В результате исследования в районе было зарегистрировано 9 видов *Salvia*, определены их ареал распространения, экологические требования и фитоценотические взаимоотношения.

Ключевые слова: *Salvia* L., география распространения, экологическая группировка, вертикальная зональность, лекарственные растения, Шерабадский район, фитоценоз.

**Bioecological Characteristics of *Salvia* L. Species Distributed in Sherobod
District of Surkhandarya Region**

**Karabayeva Dilfuza Jo'rayevna — Senior Lecturer, Department of Botany,
Termez State University**

Abdinazarov Akbar Farxod o'g'li — Student, Termez State University

Annotation: This scientific article is devoted to the study of the ecological grouping, distribution geography and bioecological characteristics of representatives

of the *Salvia* L. genus, distributed in the territory of Sherabad district of Surkhandarya region. As a result of the study, 9 *Salvia* species were recorded in the district, and their distribution area, ecological requirements and phytocenotic relationships were determined.

Keywords: *Salvia* L., distribution geography, ecological grouping, vertical zoning, medicinal plants, Sherabad district, phytocenosis.

Pomir-Oloy tog' tizmasining janubi-g'arbiy tarmog'i hisoblangan Ko'hitang tizmasining sharqiy yon bag'rida joylashgan Surxondaryo viloyati Sherobod tumani o'zining murakkab relyefi (o'rtacha suvayirg'ich balandligi 3137 m), keskin kontinental iqlimi va noyob geografik chegaralari (shimolda Tangidara soyi, sharqda qishloqlar yoysi, janubda Xo'jaikon tuz koni) bilan ajralib turadi [6]. Bu tabiiy xususiyatlar tumanda boy va o'ziga xos o'simlik dunyosining, xususan, dorivor ahamiyatga ega bo'lgan turlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Sherobod tumani florasini o'rganishga bo'lgan qiziqish uzoq tarixga ega. S.A. Nevskiy [3], K.Sh. Tojibaev [4], F.O. Xasanov [5], A.J. Ibragimov [6] va O.T. Turginov [7] kabi bir qator taniqli botanik olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar va terilgan boy gerbariy kolleksiyalar mahalliy florani o'rganishning muhim bosqichlaridir. Biroq, mavjud ma'lumotlar ko'pincha fragmentar xarakterga ega bo'lib, flora tarkibini yaxlit va tizimli tasvirlash imkonini bermaydi. Bu bo'shliq, ayniqsa, Lamiaceae Juss. oilasining eng yirik va farmakologik jihatdan eng qimmatli turlaridan biri hisoblangan *Salvia* L. turkumiga oid bo'lganida sezilardi. O'rta Osiyo va O'zbekiston florasida keng tarqalgan ushbu turkum vakillarining Sherobod tumani hududidagi aniq tarkibi, ekologik talablari va tarqalish qonuniyatlari to'liq o'rganilmagan holda qolgan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Markaziy gerbariyi (TASH) fondi va so'nggi yillardagi dala tadqiqotlari ma'lumotlarini tahli qilish shuni ko'rsatdiki, Sherobod tumani hududida *Salvia* L. turkumiga mansub kamida 9 ta tur: *S. bucharica* Popov., *S. lilacinocaerulea* Nevski., *S. macrosiphon* Boiss., *S. serawschanica* Regel., *S. spinosa* L., *S. virgata* Jasq., *S. ariana* Hedge., *S.*

scclarea L. va *S. scrophulariifolia* Bunge yashash mintaqasiga ega. Shu bois, mazkur hududda *Salvia* turlarining bioekologik xususiyatlari va tarqalishini chuqur o'rganish, nafaqat mahalliy floraning tarkibiy qismini aniqlash, balki ularning genofondini muhofaza qilish, dorivor xomashyo sifatida potentsialini baholash va mintaqaviy bioxilma-xillikni saqlash strategiyalarini ishlab chiqish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

***Salvia bucharica* Popov – Buxoro marmaragi.** Balandligi 30-50 sm uzunlikda o'sadigan ko'p yillik o'simlik. Ildizi qalin, yog'ochsimon, to'q jigarrang yoki kulrang bo'lib, poyasi och jigarrang yoki sariq. Poyasi bo'ylab uzun va qisqa tuklar rivojlangan. Barglari poya va novdalarda bir tekis taqsimlangan bo'lib, uzunligi 3-6 sm, kengligi 1,5-2,5 sm. Uchki qismi, ellips shaklida, yon qismlari esa kichikroq va cho'zilgan. Barglar cheti mayda tishli, yuqori tomonida deyarli tuksiz, pastki qismida esa qisqa tuklar mavjud. O'rta va yuqori novdalar tuxumsimon shaklda, o'tkir va yashil rangda, yuqoriga qaragan qisqa tuklar bilan qoplangan. Kosachasi och pushti rangda, yuqori labi butun va pastki labi ikki bo'lakka bo'lingan, ellips shaklida va chuqur kesilgan. Gultoj pushti rangda bo'lib, uzunligi 3-3,3 sm, kosachadan 2-2,5 baravar uzunroq. Mevasi qora jigarrang, silliq va sharsimon shaklda, uzunligi 3-4 mm, kengligi 2,5-3 mm. May-iyunda gullab iyun-iyulda meva beradi. 800-2200 metr balandlikdagi tog'ning o'rta qismida nam tuproqlarda o'sadi. Afg'oniston, Pokiston, O'rta Osiyo (Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekistonda)da keng tarqalgan.

***Salvia lilacinocaerulea* Nevski – Havorang marmarak.** Balandligi 30-55 sm uzunlikdagi ko'p yillik o'simlik. Poyasi to'g'ri, ikki baravar shoxlangan. Poyasida uzun va qisqa tuklar mavjud, gullashda ayniqsa zichroq. Barglari juda ko'p, cho'zinchoq yoki biroz tuxumsimon, uzunligi 3,5-7 sm, kengligi 1-3 sm, chuqur kesilgan, tuxumsimon yoki uchburchaksimon bo'lib, chetida to'mtoq tishlar bor. Barglarning ikki tomoni tuklar bilan qoplangan, poyasi bilan bir xil tuklar mavjud. To'pgul shoxlari asosida joylashgan, 2-3 gulli soxta halqasimon. Gulbanddagi gullar kosachaga teng uzunlikda bo'lib, oq tuklar bilan qoplangan. Kosacha 16-18 mm uzunlikda. Gultoj och binafsha-ko'k rangda, uzunligi 4-4,5 sm,

kosachadan 1,5 marta uzunroq, lablari kalta va deyarli bir xil shaklda. Yong'oqlari ellipssimon, och sariq rangda, uzunligi 4 mm, kengligi 2,5-3 mm. Iyun-iyulda gullab, iyuldan avgustgacha meva beradi. 1000-2500 (3000) metr balandlikdagi qoyali, shag'alli yon bag'irlari va toshlar orasida o'sadi. O'rta Osiyo (Turkmaniston, O'zbekistonda)da tarqalgan endem tur.

***Salvia macrosiphon* Boiss – Yirikbargli marmarak.** Balandligi 30-50 sm bo'lgan ko'p yillik o'simlik. Poyalari tekis, deyarli yerga yaqin joylashgan, uzun, tuklar bilan qoplangan. Barglari tuxumsimon yoki cho'zinchoq shaklda, uzunligi 5,5-14 sm, eni 3-8 sm, chetida o'tkir tishlar mavjud. Poyasi kichikroq, qattiq, to'pgul shoxlari qo'sh tikanli. To'pguli piramidal shaklda yoyilgan, 4-10 ta soxta halqasimon tuzilishga ega. To'pgulning yuqori qismi bo'sh, ya'ni urug' bermaydi. Gulbanddagi gullar kichik, 1-2 mm uzunlikda, 2-4 gulli. Gultoji oq rangda, uzunligi 2,5-3 sm, gultoyni nayi kosadan ancha chiqib turadi. Yuqori lab tekis va biroz egilgan, pastki lab keng, chashkasimon botiq va biroz tishli. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida meva beradi.

***Salvia serawschanica* Regel. – Zarafshon marmaragi.** Balandligi 15-30 sm bo'lgan ko'p yillik o'simlik. Yog'ochlashgan ildizga ega. Barglari cho'zinchoq ellipssimon yoki ellipssimon shaklda, uzunligi 5-8 sm, eni 1,5-3 sm. O'rta barglari kichikroq, qisqa bandli va oq tukli. To'pgul shoxlari ostidagi barglari binafsharang, keng tuxumsimon. Kosachasi naysimon, 16-20 mm uzunlikda, tomirlar bo'ylab tuklar bilan qoplangan. Ichki qismi qisqa tukli, yuqori labida 2 ta tish bo'lib, pastki labda 2 ta chuqurroq tishli qismlar mavjud. Gultoj binafsharang, uzunligi 2-3 sm. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida meva beradi. 2300-2500 m balandlikdagi quruq kanallar, shag'allar, qoyalar, gipsli va toshloq tog' yon bag'irlarida o'sadi. O'rta Osiyo (Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston)da tarqalgan endem tur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida tarqalgan *Salvia* L. turkumiga mansub turlar dorivorlik xususiyatining yuqoriligi va ekologik moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ularning Sherobod tumani tabiiy florasini shakllantirishdagi o'рни muhim bo'lib, bu turkumga mansub

turlarni chuqur o'rganish bioxilma-xillikni saqlash va dorivor resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Ayniqsa, ushbu turlarning tuman hududidagi populyatsiyalarining aniq o'rganilishi ularning genofondini saqlash, tabiatni muhofaza qilish va ilmiy-amaliy loyihalarni yo'lga qo'yish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari *Salvia* turkumiga mansub turlarni seleksiya qilish, dorivor xomashyo sifatida yetishtirish va farmatsevtika sanoatida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Определитель растений Средней Азии. Т.5. Ташкент Фан, 1974.
2. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016. – С. 1105-1132.
3. Хасанов Ф.О. Краткий очерк растительности Кугитанга // Тез. докл. юбил. науч. конф. молодых ученых и спец-тов посев 60-летию ЛКСМ Узб-на, 1985. – С. 167-168.
4. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J The effect of a biostimulator on the growth, development and yie ld of oily sunflower /“International Journal on Integrated Education” 2020. 157-160
5. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J. Effect of biostimulator on the vegetation period of oily sunflower / «International journal for innovative engineering and management research» 2020. 122-125.
6. Yuldasheva Z. K., Karabaeva D. J. The effect of different doses of different biostimulants on the yield of oily sunflower// IOP Conference Series: Earth and Environmental Science- 1142(2023) 012097